

**Annotatsiya:** ushbu maqola orqali siz dunyoqarash tushinchasi haqida, uning shakllanishi va vaqtlar o'tib o'zgarishi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Inson bor ekan dunyoqarash o'zgarib boradi.

**Kalit so'z:** dunyoqarash, dunyoni sezish, falsafiy dunyoqarash, falsafa.

Har bir insonning o'ziga xos fikrlashi ya'ni uning dunyoqarashi bo'ladi. Hozirgi kunda insonlarning dunyoqarashi orqali uning qanday ekanligi, qiziqishlarini ham bilish mumkin. Falsafa fanida dunyoqarash va uning mohiyati, turlari haqida bilib olishimiz mumkin. Dunyoqarash o'zi nima? Dunyoqarash subyektiv voqe'likni baholovchi qarorlar to'plamidir. Atrof-olamni anglashga harakat qilish natijasi o'laroq kelib chiqadi. Dunyoqarash — dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Ayni shu davrdan boshlab insonning ancha rivojlangan dunyoqarashi shakllangani haqida va umuman to'plangan bilimlar, amaliy ko'nikmalar, vujudga kelgan qadriyatlar, o'zi va o'zini qurshagan dunyo haqidagi tasavvurlar majmui sifatidagi odamlar dunyoqarashi to'g'risida ishonch bilan so'z yuritish mumkin. Hayot tajribasi va empirik bilimlar asosida shakllanadigan dunyoqarash oddiy yoki empirik dunyoqarash deb ataladi va insonning dunyo haqidagi tasavvurlarining qismlarga ajralmagan, tizimsiz majmui sifatida amal qiladi. U har qanday dunyoqarashning negizi hisoblanadi va odamlarga kundalik hayoti va faoliyatida yo'l ko'rsatib, ularning xulq-atvori va aksariyat qilmishlarini belgilab, muhim regulyativ funksiyani bajaradi. Dunyoqarash – bu, avvalo, inson o'zligini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan tasavvur va qarashlar, nazariy xulosa va umumlashmalar tizimidir. Aql paydo bo'lishi bilan inson o'zini fikrlovchi mavjudot sifatida anglay boshlaydi, unda o'z «meni» va o'zgaralar haqida tasavvuri shakllanadi va rivojlanadi. SHu tariqa u o'zini va o'zini qurshagan borliqni anglaydi, o'zi va boshqa odamlarni, o'zi va tashqi muhitni farqlaydi, ilgari o'ziga ma'lum bo'lmagan dunyoning yangi va yangi jihatlarini idrok etadi. Bunday qarashlar insonning o'zi va o'zini qurshagan borliq haqidagi

tasavvurlari majmui sifatida shakllanadigan dunyoqarash negizini tashkil etadi. Bunda inson o'ziga ma'qul va noma'qul narsalarni farqlaydi, baholar beradi, ustuvorliklar tizimini yaratadi va muayyan maqsadlarga erishishda tegishli tarzda ish ko'radi. Dunyoqarashning o'ziga xosligi va betakrorligi unda intellektual asos bilan bir qatorda emotsional va ruhiy asoslarning uzviy bog'liqligi va ularning jamuljam holda har bir inson uchun mutlaqo muayyan, individual xususiyatlar sifatida amal qilishidir. Intellektual, emotsional va ruhiy asoslar iroda bilan uyg'unlikda e'tiqodlar – odamlar faol qabul qiladigan, ularning ong darajasi va hayotdagi mo'ljallariga mos keladigan qarashlarni yuzaga keltiradi.[1] Dunyoqarashning tuzilishi dunyoni sezish, dunyoni idrok etish va dunyoni tushunish kabi eng muhim elementlardan iborat. Dunyoni sezish – bu o'zini qurshagan dunyoni sezgilar yordamida hissiy idrok etishdir. Bunda tuyg'ular, kayfiyat dunyoni go'yoki ranglarga bo'yaydi, uning obrazini sub'ektiv, sof individual sezgilar orqali aks ettiradi. Masalan, bemor odamga haddan tashqari yorug' bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan nur, sog'lom odam uchun normal bo'ladi; daltonik ranglar gammasini, ko'rish qobiliyati normal bo'lgan odamga qaraganda butunlay boshqacha idrok etadi. Bundan dunyoni sezishning har xil, xususan optimistik, pessimistik, fojeaviy tiplari kelib chiqadi. Dunyoni idrok etish – bu atrof borliqni ideal obrazlarda tasavvur qilishdir. Dunyoni idrok etish to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi, ya'ni borliqqa mos kelmasligi mumkin. Bu holda borliq noto'g'ri tasavvur qilinadi yoki illyuziyalar, suv parilari, alvastilar, kentavrlar haqidagi tasavvurlarga o'xshash fantaziyalar paydo bo'ladi. Dunyoni tushunish – insonning va uni qurshagan dunyoning mohiyatini aniqlash, shuningdek tabiatda yuz beruvchi voqealar va jarayonlarning o'zaro aloqalarini tushunishga qaratilgan aqliy-bilish faoliyatidir.[3]

Davrlar o'tishi bilan dunyoqarash ham shakllanib bordi. Dunyoqarashning uch ko'rinishi mavjud bular: mifologik dunyoqarash, diniy dunyoqarash va falsafiy dunyoqarashdir.

Mifologiya ya'ni afsonaviy dunyoqarash – kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichida paydo bo'lgan bo'lib, u tabiat kuchlari va hodisalarini hissiy qiyofalar va alohida vujudlar shaklida jonlantirib tasvirlovchi, kishilarning hayotiga asoslanuvchi qarashlar va tasavvurlardir. «Mif» tushunchasi yunoncha "mythos" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, afsona, rivoyat degan ma'noni anglatadi. Mif – bu turli xalqlarning dunyoning kelib chiqishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar, xudolar va qahramonlarning ishlari haqidagi tasavvurini ifodalovchi muayyan tarzda tizimga solingan dunyoqarashdir. Mifologik dunyoqarash dunyoni yaxlit tushunish bo'lib, unda shubhaga o'rin yo'qdir. Mifologiya qadimgi odamlar dunyoqarashi bilangina uzviy bog'liq emas. Oddiy ongda yashaydigan din, falsafa,

siyosat, san'atda aniq-ravshan yoki pardalangan ko'rinishda mavjud bo'lgan miqlar bugungi kunda ham (kim uchundir ko'proq, kim uchundir kamroq darajada) odamlar hayoti va ijodida faol rol o'ynab, har qanday inson dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi jadal sur'atlarda o'sib borayotgan sharoitda mif televideniya, radio, vaqtli matbuot, hozirgi saylov texnologiyalari vositasida ba'zan ijtimoiy ong bilan manipulyasiya qilish, oldindan belgilangan jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasi sifatida qo'llanilmoqda. Qadimgi Yunonlar afsonalarini oladigan bo'lsak, ularning bari insonlarning dunyoqarashi orqali shakllangan deya olamiz. Yunonlar xudolarini o'zlari xohlaganday tasavvur qilishgan. Ulardan qo'rqishgan, ularni jahldor deya ta'riflashgan. Aynan mana shunday fikrlash ularning dunyoqarashlariga ta'sir etgan.[4]

Diniy dunyoqarash. Dunyoqarashning tarixan ikkinchi shakli dindir. Din so'zi arabchadan tarjimada e'tiqod, ishonch, ishonmoq degan ma'nolarni anglatadi. Mif kabi, din zamirida ham e'tiqod, tuyg'ular va emotsiyalar yotadi. Diniy dunyoqarash – bu kishilarning tabiiy va ijtimoiy hodisalarni ilohiy kuchlar asosida aks ettiruvchi qarash va tasavvurlari hamda ana shu ilohiy kuchlarga bo'lgan ishonch va e'tiqodlaridir. Diniy dunyoqarashning asosiy elementlari jumlasiga diniy tuyg'u, diniy aqidalar va unga ishonish, sig'inish, diniy e'tiqod kabilar kiradi.

Miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib asosan mif va din ta'sirida odamlar dunyoqarashi nafaqat kengaydi, balki ancha murakkablashdi. U abstrakt nazariy fikrlash qobiliyati va (to'plangan bilimlar ko'rinishida) real asoslarga ega bo'lishi natijasida o'z rivojlanishining butunlay yangi darajasiga ko'tarildi. Bunga, hech shubhasiz, mehnat taqsimotiga olib kelgan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ma'lum miqdorda ortiqcha mavjudlik vositalari, bo'sh vaqtning paydo bo'lishi ham imkoniyat yaratdi. Bularning barchasi muayyan shaxslar doirasiga intellektual faoliyat bilan professional darajada shug'ullanish imkonini berdi. Falsafiy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi falsafa fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda yuz beradi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Buyuk kelajak sari" asarida shunday degan edi "Falsafiy dunyoqarash ilmiydir, chunki u narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi. Har qanday falsafiy dunyoqarash shakli ob'ektiv olamdagi narsa va hodisalarning konkret munosabatlarini aks ettiradi." [2] Vaqtlar o'tishi bilan fanning rivojlanishi, insonlarda fan nuqtai nazaridan qarashga ya'ni fan dunyoqarashini shakllanishiga olib keldi. Fan bilimning mustaqil sohasi, dunyoqarashning alohida shakli sifatida faqat XVII-XVIII asrlarda to'la shakllandi. Muayyan darajada shartlilik bilan shuni aytish mumkinki, bu I. Nyuton klassik mexanikaning asosiy qonunlarini ta'riflab, shu tariqa

tabiatshunoslikning bo'limi – asoslari asrlar mobaynida shakllangan, bosh tamoyillari esa bundan yuz yilcha muqaddam, avvalo Galileo Galiley tomonidan ta'riflangan klassik mexanikaning shakllanishiga yakun yasaganidan keyin yuz berdi.

Xulosa qilib aytganda, har bir sohaning rivojlanishi va o'zgarishiga bir necha yillar kerak bo'ladi. Aynan dunyoqarash ham birdaniga shakllanib qolgan emas. Ming yillar davomida u o'zgarib bordi. Dunyoqarashning salbiy yoki ijobiyliги esa, albatta, har bir insonning o'ziga bog'liqdir. Ba'zan bu qarashlarga jamiyat va atrofdagi voqea-hodisalar ham ta'sir etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. I.Karimov "Buyuk kelajak sar" - "O'zbekiston" 1998, 442-бет.
- 3.«Falsafa» o'quv qo'llanmasi. — T.: «Sharq», 1999.
- 4.«Osnovi filosofii». — T.: «O'zbekiston», 1998.